

**SIRDARYO VILOYATIDAGI  
KORXONA VA TASHKIOTLAR  
DEMOGRAFIYASI BO'YICHA MA'LUMOT**  
*2020-yil 1-noyabr holatiga ko'ra  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*



O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 25-sentabrdagi "Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash haqida"gi 274-son qaroriga muvofiq korxona va tashkilotlarning yagona davlat registri bazasi yuritiladi.

## **Mamlakatimizda oxirgi yillarda tadbirkorlik subyektlariga ko'rsatilayotgan e'tibor**

Tadbirkorlik subyektlari iqtisodiyotni rivojlantirish, aholi bandligi va daromadlarini oshirishda muhim omildir. Ushbu soha vakillarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida, oxirgi yillarda Prezidentimizning ko'plab farmon va qarorlari qabul qilindi.

Jumladan, tadbirkorlik faoliyatini davlat ro'yxatidan o'tkazish, turli ruxsatnomalar olish va boshqa ko'plab xizmatlar tartib-qoidalari soddalashtirildi. Bu borada qulaylik yaratish uchun Davlat xizmatlari agentligi va uning joylardagi markazlari tashkil etildi. Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil (Biznes-ombudsman) devoni tashkil qilindi.


Barcha hududlarda tadbirkorlar murojaatlarini qabul qilib, hal etishga ko'maklashadigan Bosh vazir qabulxonalari tashkil etildi. Vazirlar Mahkamasi huzurida Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi faoliyati yo'lga qo'yildi. Tijorat banklari tomonidan tadbirkorlarga ajratilayotgan kreditlar hajmi oshdi.

Oxirgi yillarda hukumatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini yanada rivojlantirish va barqaror faoliyat ko'rsatishini ta'minlash maqsadida yaratib berilayotgan shart-sharoitlar va qulayliklar natijasida faoliyat ko'rsatayotgan hamda yangi tashkil etilayotgan korxona va tashkilotlar soni yildan-yilga sezilarli ravishda oshib bormoqda.

Korxona va tashkilotlar to'g'risidagi mazkur ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma'lumotlar bazasi asosida, 2020- yil 1-noyabr holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.

## Ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar soni

(1-noyabr holatiga ko'ra, birlikda)



Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rniда, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tadbiq qilinmoqda. Bu esa aholi hamda xorijiy investorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

## Korxona va tashkilotlar soni

(2020-yil 1-noyabr holatiga ko'ra, birlikda)



Ro'yxatdan o'tgan korxonalar

16 187

123,4 %



Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar

15 226

123,5 %



Yangi tashkil etilgan korxonalar  
(2020-yilda)

2 636




112,4 %

### Yuridik shaxs:

Yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka ega bo'lgan hamda o'z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, o'z nomidan mulkiy yoki shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'la oladigan va ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, sudda da'vogar va javobgar bo'la oladigan tashkilot **yuridik shaxs** hisoblanadi.

## Ro'yxatdan o'tgan tijorat korxonalarini soni

*(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha 2020-yil 1-noyabr holatiga ko'ra, birlikda)*




### **Mas'uliyati cheklangan jamiyat**


Bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta'sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta'sis hujjatlari bilan belgilangan miqdorda ulushlarga bo'lingan xo'jalik jamiyatni mas'uliyati cheklangan jamiyat deb hisoblanadi. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatlari bo'yicha javobgar bo'lmaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zararlar uchun o'zları qo'shgan hissalar qiymati doirasida javobgar bo'ladilar.

Mas'uliyati cheklangan jamiyatning o'z hissasini to'la qo'shmagan, ishtirokchilari jamiyat majburiyatlari bo'yicha har bir ishtirokchi hissasining to'lanmagan qismi qiymati doirasida solidar javobgar bo'ladilar.

## Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni (1-noyabr holatiga ko'ra)




## Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni (iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1-noyabr holatiga ko'ra, birlikda)



## Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarini soni

(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha 2020-yil 1-noyabr holatiga ko'ra, birlikda)



### Aksiyadorlik jamiyatni:

Ustav fondi muayyan aksiyalar soniga bo'lingan jamiyat - aksiyadorlik jamiyatni hisoblanadi;


- aksiyadorlik jamiyatining ishtirokchilari (aksiyadorlar) uning majburiyatlari bo'yicha javob bermaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zarar uchun o'zlariga qarashli aksiyalar qiymati doirasida javobgar bo'ladilar.

Aksiyalar haqini batamom to'lamanagan aksiyadorlar, aksiyadorlik jamiyatining majburiyatlari bo'yicha, o'zlariga qarashli aksiyalar qiymatining to'lamanagan qismi doirasida solidar javobgar bo'ladilar.

Aksiyadorlik jamiyatining firma nomida, jamiyatning nomi hamda bu jamiyat aksiyadorlik jamiyatni ekanligi o'z ifodasini topishi kerak.


## Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni

(yanvar- oktabr oylarida, birlikda)




## Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, yanvar-oktabr oylarida)




## Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha tarkibi

(2020-yil yanvar-oktabr oylarida, umumiy sonidagi ulushi)



2020-yilning yanvar-oktabr oylarida 2 636 ta korxona va tashkilotlar yangi tashkil etildi. Shundan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar– 2 227 ta, xususiy korxonalar– 142 ta, oilaviy korxonalar– 156 ta, muassasalar– 28 ta va boshqalar– 83 tani tashkil etdi.

## Oilaviy korxonalar soni (1-noyabr holatiga ko'ra, birlikda)



Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2020-yilning 1-noyabr holatiga ko'ra 360 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 192 taga yoki 214,3 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 308 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 157 taga yoki 204,0 % ga oshganligini ko'rish mumkin.


2020-yil yanvar-oktabr oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni 156 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 78 taga yoki 200,0 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

## Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni (1-noyabr holatiga ko'ra, birlikda)

Tashkiliy huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2020-yilning 1-noyabr holatiga ko'ra 10 089 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2 790 taga yoki 38,2 % ga oshganligini ko'rish mumkin.


Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 9 561 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2 666 taga yoki 38,7 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2020-yil yanvar-oktabr oylarida yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2 227 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 325 taga yoki 17,1 % ga ko'payganligini ko'rish mumkin.



## Xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar soni

(2020-yil 1-noyabr holatiga ko'ra, birlikda)




Ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar soni 2020-yil 1-noyabr holatiga ko'ra 192 tani tashkil etib, ulardan 188 tasi yoki 97,9 % faoliyat ko'rsatmoqda. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 40 taga yoki 126,3 % ga oshganligini ko'rish mumkin.


2020-yil yanvar-oktabr oylarida Viloyatimizda 23 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar yangi tashkil etildi.

## Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni


(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yanvar-oktabr oylarida, birlikda)




## Kichik tadbirkorlik subyektlari soni (2020-yil 1- noyabr holatiga ko'ra, birlikda)



## Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni (iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1-noyabr holatiga ko'ra, birlikda)




## Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni (1-noyabr holatiga ko'ra, birlikda)



## Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni (1-noyabr holatiga ko'ra, birlikda)

	2016-yil	2017-yil	2018-yil	2019-yil	2020-yil
Jami	64	83	106	149	188
shu jumladan:					
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	4	4	9	10	16
Sanoat	47	61	72	100	118
Qurilish	1	3	5	8	10
Savdo	6	9	11	20	27
Tashish va saqlash	2	3	4	5	4
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	-	-	1	-	2
Axborot va aloqa	-	-	-	2	2
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	-	-	-	-	-
Boshqa turlar	4	3	4	4	9


## Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni (1-noyabr holatiga ko'ra, birlikda)



## Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni (1-noyabr holatiga ko'ra, birlikda)

	2016- yil	2017- yil	2018- yil	2019- yil	2020- yil
<b>Jami</b>	<b>3 496</b>	<b>4 264</b>	<b>5 068</b>	<b>6 895</b>	<b>9 561</b>
<i>shu jumladan:</i>					
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	538	678	834	1 067	1 591
Sanoat	531	685	797	1 151	1 479
Qurilish	342	439	600	921	1 111
Savdo	1 170	1 345	1 545	2 105	3 350
Tashish va saqlash	372	439	460	471	517
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	125	189	240	446	566
Axborot va aloqa	67	66	62	72	99
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	47	24	33	50	80
Boshqa turlar	304	399	497	612	768

## Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni (1-noyabr holatiga ko'ra, birlikda)




## Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni (1-noyabr holatiga ko'ra, birlikda)

	2017-yil	2018-yil	2019-yil	2020-yil
<b>Jami</b>	<b>62</b>	<b>88</b>	<b>151</b>	<b>308</b>
<i>shu jumladan:</i>				
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	10	8	20	59
Sanoat	28	38	73	133
Qurilish	-	-	-	1
Savdo	13	16	23	49
Tashish va saqlash	-	1	2	1
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	5	19	25	48
Axborot va aloqa	1	1	1	2
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	-	-	-	-
Boshqa turlar	5	5	7	15


**O'zbekiston Respublikasida MDH davlatlarining kapitali  
ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni  
(2020-yil 1- noyabr holatiga ko'ra, birlikda)**

	<b>Jami</b>	<i>shundan:</i>	
		<b>qo'shma korxona</b>	<b>xorijiy korxona</b>
Rossiya Federatsiyasi	<b>29</b>	18	11
Qozog'iston Respublikasi	<b>16</b>	13	3
Ozarbayjon Respublikasi	<b>4</b>	3	1
Qirg'iziston Respublikasi	<b>3</b>	2	1
Tojikiston Respublikasi	<b>8</b>	5	3
Ukraina Respublikasi	<b>1</b>	1	-
Belarus Respublikasi	<b>2</b>	2	-

## Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining davlatlar kesimida soni (2020-yil 1-noyabr holatiga ko'ra, birlikda)



## Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni (iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1-noyabr holatiga ko'ra, birlikda)




**Hududlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi  
faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni  
(2020-yil 1-noyabr holatiga ko'ra, birlikda)**

	<b>Jami</b>	<b>shundan:</b>	
		<b>qo'shma korxona</b>	<b>xorijiy korxona</b>
<b>Sirdaryo viloyati</b>	<b>188</b>	<b>125</b>	<b>63</b>
<b>Guliston sh.</b>	<b>43</b>	<b>29</b>	<b>14</b>
<b>Shirin sh.</b>	<b>6</b>	<b>6</b>	<b>-</b>
<b>Yangiyer sh.</b>	<b>22</b>	<b>9</b>	<b>13</b>
<b>Oqoltin</b>	<b>4</b>	<b>1</b>	<b>3</b>
<b>Boyovut</b>	<b>8</b>	<b>4</b>	<b>4</b>
<b>Sayxunobod</b>	<b>13</b>	<b>8</b>	<b>5</b>
<b>Guliston</b>	<b>5</b>	<b>4</b>	<b>1</b>
<b>Sardoba</b>	<b>10</b>	<b>7</b>	<b>3</b>
<b>Mirzaobod</b>	<b>12</b>	<b>7</b>	<b>5</b>
<b>Sirdaryo</b>	<b>56</b>	<b>46</b>	<b>10</b>
<b>Xovos</b>	<b>9</b>	<b>4</b>	<b>5</b>

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning asosiy qismi Sirdaryo tumanida 56 ta (umumiyligi miqdoridagi ulushi 29,8 %), Guliston shahrida 43 ta (22,9 %), Yangiyer shahrida 22 ta (11,7%), Sayxunobod tumanida 13 ta (6,9 %) hamda Mirzaobod tumanida 12 tani (6,4 %) tashkil etadi.

## Ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni

*(2020-yil 1-noyabr holatiga ko'ra, birlikda)*




2020-yil 1-noyabr holatiga ko'ra ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi Guliston shahri (28,6 %), Sirdaryo (14,3 %), Sayxunobod (8,0 %), Boyovut (7,9 %), Guliston (7,5 %), Mirzaobod (8,2 %), Yangiyer shahri (7,0 %), Oqoltin (5,5 %), Xovos (5,6 %), Sardoba (4,8 %), Shirin shahri (2,5 %) hissalariga to'g'ri keladi.


## Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni

*(2020-yil yanvar-oktabr oylarida, birlikda)*


2020-yil yanvar-oktabr oylarida yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda, ularning soni Guliston shahri (21,4 %), Sirdaryo (11,5 %), Sayxunobod (8,2 %), Boyovut (9,3 %), Guliston (6,6 %), Mirzaobod (10,2 %), Yangiyer shahri (5,7 %), Oqoltin (9,2 %), Xovos (6,6 %), Sardoba (8,0 %), Shirin shahri (3,3 %) hissalariga to'g'ri keladi.



## Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining hududlar kesimidagi soni (2020-yil 1-noyabr holatiga ko'ra, birlikda)




## Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning hududlar kesimidagi soni (2020-yil 1-noyabr holatiga ko'ra, birlikda)



2020-yil 1-noyabr holatiga ko'ra faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar hududlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi, Guliston shahri (25,0 %), Sirdaryo tumani (16,6 %), Sayxunobod (8,3 %), Boyovut (7,2 %), Guliston (6,8 %), Mirzaobod (9,0 %), Yangiyer shahri (8,2 %), Oqoltin (5,4 %), Xovos tumani (5,8 %), Sardoba (5,1 %), Shirin shahri (2,5 %) hissalariga to'g'ri keladi.


## Hududlar kesimida jami xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning qo'shma korxona va xorijiy korxonalarga taqsimlanishi

(2020-yil 1- noyabr holatiga ko'ra, jamiga nisbatan ulushi, % da)





2017-2021-yillarda rivojlanishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha "Harakatlar strategiyasi"ning uchinchi muhim yo'nalishi - xalqaro iqtisodiy hamkorlikni yanada rivojlantirish hisoblanadi. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar sonini o'sib borishi, eng avvalo, mamlakatdagi siyosiy barqarorlik va investitsiya faoliyatining qonuniy asoslari takomillashib borayotgani bilan izohlanadi.

## Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarining hududlar bo'yicha soni (2020-yilning yanvar-oktabr oylarida, birlikda)



2020-yilning yanvar-oktabr oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar, hududlar kesimida taqsimlanganda Guliston shahri (8,3 %), Sirdaryo (12,8 %), Boyovut (5,1%), Guliston (11,5 %), Mirzaobod (3,8 %), Yangiyer shahri (1,3 %), Oqoltin (47,4 %), Sardoba (0,6 %), Xovos (7,1 %), Shirin shahri (1,3 %), Sayxunobod (0,6 %) ulushga ega.

## Hududlar kesimida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni (2020-yilning yanvar-oktabr oylarida, birlikda)



## Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

### Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri – axborot-

ma'lumotnoma tusidagi, vaqtı-vaqtı bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxona va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikasiyalashtirishni ta'minlaydi.

**Ro'yxatga olingan korxona va tashkilotlar** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestriga mavjud bo'lgan yuridik shaxslar (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

**Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslar.

**Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslar.

**Kichik korxona va mikrofirmalar** – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 24-avgustdagи “Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida” 275-sonli qarorining 1-ilovasiga muvofiq kichik tadbirkorlik subyektlariga ajratiladi.

# Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri

The screenshot displays the official website of the State Statistics Committee of Uzbekistan (O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo'mitası). The main navigation bar includes links for 'ASOSIY SAHIFA', 'QO'MITA HAQIDA', 'AXBOROT XIZMATI', 'INTERAKTIV XIZMATLAR', 'OCHIQ MA'LUMOTLAR', 'MUROJAATLAR', and 'KONTAKTLAR'. A search bar at the top right allows users to search by name ('Qidirish') or ID ('Qidirish'). The central content area features a search form for company registration numbers ('Kodni yangilash uchun rasmiga bosing') and a sidebar listing various statistical publications such as 'Ahollini ro'yxatga olish-2022', 'Harakatlar strategiyasi', 'Press-relejzlar', etc.

Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Davlat statistika qo'mitasining [www.stat.uz](http://www.stat.uz) rasmiy saytida real vaqt rejimida, so'ralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul oishlari mumkinligi belgilab qo'yilgan.

**Statistik registrlarni  
yuritish bo'limi  
Tel.:(67)236-86-37**